



UDK:372.8

Maqsud N. KENJAYEV,
Tayanch doktorant, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: kenjayevmaqsud06@gmail.com

DSc, professor T.Ismolilov taqrizi asosida

YOSHLARNI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA FAOLLIGINI KUCHAYTIRISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada yoshlarni islohotlarni amalga oshirish jarayoniga faol jalb etishning nazariy va amaliy jihatlarini ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Asosiy maqsad yoshlar faolligini kuchaytiruvchi omillarni aniqlash hamda ularning islohotlar samaradorligini ta'minlashdagi o'rnini asoslashdan iborat. Ishda tizimli yondashuv hamda ijtimoiy-falsafiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada yoshlar faolligini belgilovchi asosiy omillar siyosiy-huquqiy madaniyat, institutsional imkoniyatlar, iqtisodiy mustaqillik va fuqarolik mas'uliyati ajratib ko'rsatildi. Shuningdek, siyosiy savodxonlikni rivojlantirish, yoshlar parlamenti va maslahat organlari faoliyatini takomillashtirish, grant-startap dasturlarini kengaytirish hamda raqamli ishtirok platformalaridan foydalanish muhim amaliy mexanizmlar sifatida asoslandi. Yakunda yoshlar faolligini oshirish davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, ularning islohotlardagi faol ishtiroki demokratik boshqaruv samaradorligi hamda fuqarolik jamiyati rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, islohotlar, yoshlar faolligi, fuqarolik jamiyati, siyosiy-huquqiy madaniyat, institutsional imkoniyatlar, iqtisodiy mustaqillik, fuqarolik faolligi, yoshlar siyosati, demokratik boshqaruv, Yangi O'zbekiston.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ РЕАЛИЗАЦИИ РЕФОРМ

Аннотация

В данной статье на основе социально-философского подхода проанализированы теоретические и практические аспекты активного вовлечения молодежи в процесс реализации реформ. Основной целью исследования является выявление факторов, способствующих повышению активности молодежи, а также обоснование их роли в обеспечении эффективности реформ. В работе использованы методы системного подхода и социально-философского анализа. В результате исследования выделены ключевые факторы, определяющие уровень активности молодежи: политико-правовая культура, институциональные возможности, экономическая самостоятельность и гражданская ответственность. Кроме того, в качестве эффективных практических механизмов обоснованы развитие политической грамотности, совершенствование деятельности молодежного парламента и консультативных органов, расширение грантовых и стартап-программ, а также использование цифровых платформ участия. Сделан вывод о том, что повышение активности молодежи является важным фактором развития государства и общества, а их активное участие в реализации реформ способствует повышению эффективности демократического управления и развитию гражданского общества.

Ключевые слова: Молодежь, реформы, молодежная активность, гражданское общество, политико-правовая культура, институциональные возможности, экономическая самостоятельность, гражданская активность, молодежная политика, демократическое управление, Новый Узбекистан.

OPPORTUNITIES FOR ENHANCING YOUTH PARTICIPATION IN THE IMPLEMENTATION OF REFORMS

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical aspects of actively engaging young people in the implementation of reforms through a socio-philosophical approach. The main objective of the study is to identify the factors that enhance youth participation and to substantiate their role in ensuring the effectiveness of reforms. The research employs a systems approach and socio-philosophical analysis as its primary methods. The findings identify the key determinants of youth participation, including political and legal culture, institutional opportunities, economic independence, and civic responsibility. Furthermore, the study substantiates several practical mechanisms for increasing youth engagement, such as improving political literacy, strengthening the activities of youth parliaments and advisory bodies, expanding grant and startup programs, and promoting the use of digital participation platforms. The study concludes that enhancing youth participation is a significant factor in the development of the state and society, while the active involvement of young people in reform processes contributes to more effective democratic governance and the advancement of civil society.

Key words: Youth, reforms, youth participation, civil society, political and legal culture, institutional opportunities, economic independence, civic responsibility, youth policy, democratic governance, New Uzbekistan.

Introduction. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida islohotlarning muvaffaqiyati nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligi, balki fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ushbu jarayonlarda faol ishtirok etish darajasiga ham bevosita bog'liq. Bugungi kunda yoshlar jamiyatning eng katta demografik qatlamlaridan biri sifatida ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning islohotlarni amalga oshirish jarayonidagi faolligini kuchaytirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlar faolligini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan avval "faollik" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash zarur. Chunki faollikni oddiy ishtirok bilan aynanlashtirish metodologik jihatdan to'liq yondashuvni bermaydi. Ishtirok ko'proq ma'lum jarayonda qatnashishni anglatrsa, faollik shaxsning ongli, maqsadga yo'naltirilgan va mas'uliyatli harakatlarini ifodalaydi. Faollik – shaxsning hayotida ma'lum bir maqsad yo'lidagi ilg'or intiluvchan xatti-harakatlarini namoyon etuvchi tushuncha bo'lib, insonning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqador faoliyatini ifodalaydi. Ushbu yondashuv faollikni shaxsning ichki motivatsiyasi hamda ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Aholining 14-30 yosh oralig'idagi qatlamini yoshlar deb oladigan bo'lsak, yoshlar faolligi deganda shaxsning jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ongli munosabat bildirishi, tashabbus ko'rsatishi, qarorlar muhokamasida ishtirok etishi hamda jamiyat rivojiga daxldorlik hissi asosida harakat qilishi tushuniladi. Bunday yondashuv yoshlarni davlat siyosatining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida baholash imkonini beradi. Aynan shu jihat islohotlarning ijtimoiy legitimligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlash hamda inson manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirishga qaratilgan. Mazkur jarayonda yoshlarning faol ishtiroki nafaqat ijtimoiy ehtiyoj, balki strategik zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki islohotlarning amaliy samaradorligi yoshlarning ularga bo'lgan ishonchi, daxldorlik hissi va tashabbuskorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Professor Sarvar Otamuratov yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr yuritarkan, yoshlar ongi va dunyoqarashida jamiyat ijtimoiy tuzilmasida kechayotgan o'zgarishlardan kelib chiqib, ularni taraqqiyotga yo'naltirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishda yagona kuch sifatida birlashib harakat qilish zarurati shakllantirilishi lozim, deb ta'kidlaydi[1]. Mazkur fikr yoshlar faolligi individual manfaatlarini emas, balki umumjamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar ham murakkablashib bormoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar rivojlanishi, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi hamda qadriyatlar transformatsiyasi yoshlarning dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim hollarda yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashishi, ijtimoiy mas'uliyatning pasayishi yoki destruktiv axborot ta'siriga berilishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Shu sababli yoshlar faolligini rivojlantirish faqat ularni islohotlarga jalb etish bilangina cheklanmay, balki ularda tanqidiy tafakkur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirishni ham talab qiladi.

Bu borada Murtazo Qarshiboyevning quyidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi: bu olamda har bir inson, millat va xalq hayotining ma'nosi o'zini o'rab turgan muhitdan, milliy urf-odatlar va ota-bobolariga xos azaliy fazilatlardan kelib chiqqan holda tushuniladi[2]. Mazkur qarash yoshlar faolligini rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosning o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasi demokratik taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki siyosiy jarayonlarning inklyuzivligini ta'minlaydi, qabul qilinayotgan qarorlarning legitimligini kuchaytiradi hamda davlat boshqaruviga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi, deya ta'kidlaydi M. K. Park [3]. Ushbu yondashuv yoshlar faolligini davlat boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi institutsional resurs sifatida baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar faolligi shaxsning individual xususiyati emas, balki siyosiy madaniyat, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy institutlar va demokratik boshqaruv tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab

ijtimoiy hodisadir. Islohotlarning barqaror amalga oshirilishi yoshlarning ushbu jarayonlarda faol subyekti sifatida ishtirok etishiga bog'liq. Shu nuqta nazardan yoshlar faolligini kuchaytirish nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, balki jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida baholanishi lozim.

Methods. Yoshlarning islohotlarni amalga oshirish jarayonidagi faolligi ko'plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Mazkur faollikni faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Uning rivojlanishi davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoitlar, fuqarolik madaniyati, iqtisodiy imkoniyatlar hamda yoshlarning huquqiy bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois mazkur tadqiqotda yoshlar faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, analiz va ijtimoiy-falsafiy tahlil usullari tashkil etdi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tahliliy materiallar mazmunan tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuv yoshlar faolligini shakllantiruvchi omillarni tizimli ravishda baholash imkonini berdi.

Yoshlar faolligini belgilovchi muhim omillardan biri institutsional imkoniyatlar hisoblanadi. Yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy mexanizmlar mavjud bo'lgan taqdirdagina ularning tashabbuslari amaliy natijaga ega bo'ladi. Yoshlar parlamenti, davlat organlari huzuridagi maslahat kengashlari, jamoatchilik muhokamalari hamda raqamli muloqot platformalari yoshlarning o'z fikrini erkin ifoda etishi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishiga xizmat qiluvchi muhim institutlardir. Mazkur mexanizmlar yoshlarni davlat siyosatining passiv kuzatuvchisidan faol hamkoriga aylantiradi.

Bu borada M. K. Park yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki siyosiy jarayonlarning inklyuzivligini ta'minlaydi, qabul qilinayotgan qarorlarning legitimligini kuchaytiradi hamda davlat boshqaruviga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi, deb ta'kidlaydi[3]. Mazkur ilmiy qarash yoshlarning islohotlardagi faolligi faqat siyosiy huquqlar bilan emas, balki ularni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi institutlarning mavjudligi bilan ham belgilanishini ko'rsatadi.

Yoshlar faolligini belgilovchi ikkinchi muhim omil iqtisodiy mustaqillikdir. Bandlikning ta'minlanishi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda barqaror daromad manbalarining yaratilishi yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei mustahkamlaydi. Iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan yoshlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini chuqurroq anglaydi hamda islohotlarda faolroq ishtirok etadi. Shu ma'noda iqtisodiy barqarorlik yoshlar fuqarolik faolligining muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham iqtisodiy xavfsizlik fuqarolik faolligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ronald Inglehart va Christian Welzel iqtisodiy xavfsizlik organi sari fuqarolar jamiyat hayotida faolroq ishtirok etishga va o'z manfaatlarini demokratik vositalar orqali ilgari surishga moyil bo'ladi, deya ta'kidlaydi[4]. Ushbu ilmiy yondashuv yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish islohotlarning ijtimoiy tayanchini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Yoshlar faolligini shakllantirishda siyosiy-huquqiy madaniyat ham alohida o'rin egallaydi. Siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglaydigan, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega yoshlar islohotlarni ongli ravishda qo'llab-quvvatlaydi. Aksincha, siyosiy savodxonlikning pastligi yoki noto'g'ri axborot ta'siri yoshlarning ijtimoiy faolligini susaytirishi yoxud uni destruktiv yo'nalishga burishi mumkin. Shu sababli fuqarolik ta'limi, huquqiy madaniyat va siyosiy savodxonlikni rivojlantirish yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning islohotlar jarayonidagi faolligi uchta asosiy omil – institutsional imkoniyatlar, iqtisodiy mustaqillik hamda

siyosiy-huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Ushbu omillarning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular kompleks tarzda amal qilgandagina yoshlar jamiyatdagi islohotlarning tashabbuskori va faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Shu bois yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati ham aynan ushbu omillarning uzviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilishi zarur.

Results. Yoshlarning islohotlar jarayonidagi faolligini kuchaytirish nazariy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mexanizmlar orqali ham ta'minlanishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan bir qator institutsional vositalar shakllanmoqda. Ularning eng muhimlari siyosiy savodxonlikni oshirish, yoshlar parlamenti faoliyati, ijtimoiy grantlar va startap dasturlari hamda raqamli ishtirok platformalaridir.

Birinchi muhim yo'nalish – ta'lim orqali siyosiy savodxonlikni rivojlantirishdir. Siyosiy savodxonlik yoshlarning konstitutsiyaviy bilimlarini, huquq va majburiyatlarini anglashini hamda davlat boshqaruvi mexanizmlariga oid tushunchalarini mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan materiallar yoshlarning siyosiy jarayonlarga ongli ravishda qo'shilishi fuqarolik ta'limi va huquqiy madaniyat darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Siyosiy savodxonlik mavjud bo'lgan sharoitda yoshlar nafaqat fikr bildiradi, balki o'z pozitsiyasini asoslay oladi va konstruktiv takliflar bilan chiqadi.

Ikkinchi yo'nalish – yoshlar parlamenti va maslahat organlari faoliyatidir. Mazkur institutlar yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlariga yaqinlashuvini ta'minlaydi. Qonun loyihalarini muhokama qilish, takliflar ishlab chiqish va davlat organlari bilan muloqot qilish imkoniyatlari yoshlarning siyosiy tajribasini oshiradi hamda mas'uliyat hissini shakllantiradi. Natijada yoshlar islohotlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki ularni muhokama qilish va takomillashtirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Uchinchi yo'nalish – ijtimoiy grantlar va loyihaviy qo'llab-quvvatlash tizimidir. Tadqiqot natijalari davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan ijtimoiy loyihalar yoshlarning tashabbuskorligini rag'batlantirayotganini ko'rsatdi. Yoshlar ekologiya, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy himoya kabi yo'nalishlarda loyihalar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayon yoshlarni tanqidchi emas, balki muammolar yechimiga hissa qo'shuvchi subyektga aylantirmoqda.

To'rtinchi yo'nalish – startap inkubatorlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqillik yoshlar faolligining muhim sharti ekanligi nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa, amaliy tahlillar ham bu fikrni tasdiqladi. Innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, yosh tadbirkorlarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan rag'batlantirish ularning iqtisodiy subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy jihatdan mustaqil yoshlar jamiyatdagi islohotlarga nisbatan mas'uliyatliroq va barqarorroq pozitsiyani egallashi kuzatildi.

Discussion. Yoshlarning islohotlar jarayonidagi faolligini kuchaytirish faqat alohida dastur yoki tashkiliy tadbirlarni amalga

oshirish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon yoshlarning siyosiy madaniyati, fuqarolik mas'uliyati, iqtisodiy imkoniyatlari hamda davlat va jamiyat institutlari bilan hamkorligini izchil rivojlantirishni talab etadi. Shu bois yoshlar faolligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini kompleks yondashuv asosida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar faolligini rivojlantirishda eng muhim yo'nalishlardan biri konstruktiv fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir. Konstruktiv faollik yoshlarning ijtimoiy tashabbus ko'rsatishi, innovatsion loyihalarda ishtirok etishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi hamda davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan harakat qilishida namoyon bo'ladi. Bunday faollik islohotlarning ijtimoiy tayanchini mustahkamlab, davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonida yoshlar faolligining destruktiv shakllari ham uchrab turadi. Axborot manipulyatsiyasi, radikal qarashlarning targ'ib qilinishi yoki ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotlarning keng tarqalishi ayrim yoshlarning qarashlari va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda faollikni cheklash emas, balki uni to'g'ri yo'naltirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish hamda huquqiy madaniyatni mustahkamlash destruktiv ta'sirlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ronald Inglehart va Christian Welzel Demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning faol ishtiroki va o'z manfaatlarini qonuniy vositalar orqali ifoda eta olishiga bog'liq, deb ta'kidlaydi [4]. Ushbu ilmiy qarash yoshlar faolligini rivojlantirishda demokratik institutlarni takomillashtirish hamda fuqarolik jamiyati mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar faolligini kuchaytirishning bir necha ustuvor yo'nalishlarini ajratish mumkin. Jumladan, yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ta'lim tizimida fuqarolik va siyosiy savodxonlikni rivojlantirish, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yoshlar tashabbuslarini grantlar va ijtimoiy loyihalar orqali rag'batlantirish hamda raqamli platformalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yoshlar faolligini oshirishning muhim shartlari hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlar o'zaro uyg'un holda amalga oshirilgandagina islohotlar jarayonida yoshlarning haqiqiy ishtiroki ta'minlanadi.

Xulosa. Yoshlarni islohotlarni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari yoshlar faolliги siyosiy-huquqiy madaniyat, institutsional imkoniyatlar va iqtisodiy mustaqillikning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanishini ko'rsatdi. Shu bois yoshlar siyosatini takomillashtirishda ularning fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish hamda innovatsion faoliyatini rag'batlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Natijada yoshlar islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki ularning tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Отамуратов, С. (2021). Янгиланаётган Ўзбекистон ижтимоий-инновацион жараёнларида ёшлар фаолияти. Тошкент: Фан ва технологиялар. В.100
2. Murtazo Qarshiboyev Ezgulik va ma'naviyat. T.: "Ma'naviyat", 2009.8-b.
3. Park, M. K. (2023). Promoting Youth Participation in Decision-Making and Public Service Delivery through Harnessing Digital Technologies (UN DESA Policy Brief No. 149). New York, NY: United Nations Department of Economic and Social Affairs.
4. Inglehart, R., & Welzel, C. (2021). Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence (Updated ed.). Cambridge: Cambridge University Press.